

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 290 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**  
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya**, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi**, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TDIUprofessor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d., TSUE professori  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Musayeva Shoirazimovna**, SamDu IS instituti professori  
**Cham Tat Huei**, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
**Djudi Smetana**, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Krissi Lyuis**, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Ali Konak (Али Кўнак)**, i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
**Glazova Marina Viktorovna**, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

### Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyeich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyea Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                  |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari .....                                                                                | 16  |
| Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna                                                                                                        |     |
| Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda .....                                                                                                                | 20  |
| Muxiddin Kalonov                                                                                                                                                                 |     |
| "Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish .....                                                                                                      | 24  |
| Muhammadiyeva Maftuna                                                                                                                                                            |     |
| Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati .....                                                                                                     | 27  |
| Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna                                                                                                                                               |     |
| Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda<br>ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni<br>aniq sotsiologik baholash..... | 31  |
| Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich                                                                                                                                               |     |
| Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме<br>на охраняемых природных территориях Узбекистана.....                                                          | 40  |
| Ахмедходжаев Равшан Темурович                                                                                                                                                    |     |
| Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi<br>asosiy tendensiyalari va muammolari .....                                                 | 49  |
| To'irov Yunus Alamovich                                                                                                                                                          |     |
| Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish<br>orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....               | 55  |
| Rustamov Alisher Raxmataliyevich                                                                                                                                                 |     |
| Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda<br>innovatsion usullardan foydalanish.....                                                          | 62  |
| Ustadjalilova Xurshida Aliyevna                                                                                                                                                  |     |
| Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....                                                                                                       | 67  |
| Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich                                                                                                                                               |     |
| Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....                                                                                                                     | 71  |
| Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich                                                                                                                                               |     |
| Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning<br>nazariy-uslubiy jihatlar.....                                                                      | 76  |
| Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li                                                                                                                                                 |     |
| Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....                                                                                                            | 81  |
| Yuldashev Iskandar Bahromovich                                                                                                                                                   |     |
| Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini<br>boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar .....                 | 86  |
| Jiyanova Nargiza Esanboyevna                                                                                                                                                     |     |
| Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....                                                                                       | 93  |
| Z. Abdikarimova, S. Madaminov                                                                                                                                                    |     |
| Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....                                                                                                          | 97  |
| Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov                                                                                                                                                   |     |
| Sociological Assessment of Migration Processes .....                                                                                                                             | 102 |
| Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli                                                                                                                                             |     |
| Current issues of business management in the context of digitalization of the economy .....                                                                                      | 112 |
| Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich                                                                                      |     |
| Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....                                                                                                             | 118 |
| Эркинов Шахзод Баходир ўғли                                                                                                                                                      |     |



|                                                                                                                      |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....                        | 125 |
| <b>Abirkulova Sohijjamol</b>                                                                                         |     |
| Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System<br>(Using the Example of Uzbekistan) .....         | 130 |
| <b>Bakhrom Nomazov</b>                                                                                               |     |
| Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining<br>ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....     | 136 |
| <b>Bozorova Saxobat Abdujapparovna</b>                                                                               |     |
| Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....                                 | 142 |
| <b>Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli</b>                                                                                |     |
| O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli .....                                  | 148 |
| <b>Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b>                                              |     |
| Agroklastarlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish .....               | 155 |
| <b>G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li</b>         |     |
| Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing<br>Innovation Processes in Commercial Banks ..... | 160 |
| <b>Juraev K. T.</b>                                                                                                  |     |
| Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish .....                       | 164 |
| <b>Mamasoatov Dilshod Ravshanovich</b>                                                                               |     |
| Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda<br>solliqlarning roli va ahamiyati.....        | 169 |
| <b>Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich</b>              |     |
| O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....                                            | 175 |
| <b>Rahmatullayeva Dilbar Olimovna</b>                                                                                |     |
| Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubi-yatini takomillashtirish..                   | 181 |
| <b>Raxmatov Akmal Anvar o'g'li</b>                                                                                   |     |
| The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry<br>(Case Study: Uzbekistan).....                | 187 |
| <b>Rofeeva Rukhshona Shavkatovna</b>                                                                                 |     |
| Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash tizimi.....                                                              | 192 |
| <b>Sabirova Asal Shuhratovna</b>                                                                                     |     |
| Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region .....                                 | 196 |
| <b>Shakhzod Zokhidov</b>                                                                                             |     |
| Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida<br>iqtisodiy salohiyatni boshqarish .....   | 202 |
| <b>Kadirova Shaxnoza Ilhomovna</b>                                                                                   |     |
| Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....                                      | 207 |
| <b>Usmonov Baxodir Suvonqulovich</b>                                                                                 |     |
| Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari .....                                         | 211 |
| <b>Nasimov Shavkat Vasiyevich</b>                                                                                    |     |
| O'zbekistonda banklararo raqobat.....                                                                                | 219 |
| <b>Zunnunova Xulkar Muxtorovna</b>                                                                                   |     |
| O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish .....                        | 225 |
| <b>Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich</b>                                           |     |
| Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari .....                                              | 229 |
| <b>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</b>                                                                           |     |
| Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....                                                                   | 233 |
| <b>Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich</b>                                                  |     |



|                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....                          | 237 |
| Eshonqulov Azamat Abdiraximovich                                                                                                          |     |
| Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....                                                                                   | 241 |
| Karayev Payzillaxon Yusufxonovich                                                                                                         |     |
| Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlarini yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari.....      | 245 |
| Xidirov Alimardon Dagarovich                                                                                                              |     |
| The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English .....                                      | 248 |
| Nilufar Turdiyeva                                                                                                                         |     |
| Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati .....                           | 252 |
| Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li                                                                                                         |     |
| Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi ..... | 256 |
| G. Sh. Qo'ldosheva, A. J. Toshboyev                                                                                                       |     |
| Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации .....                                                                                    | 260 |
| Каюмова Паризода                                                                                                                          |     |
| Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari...                                         | 266 |
| G. I. Abdulxamidova                                                                                                                       |     |
| Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива .....                              | 272 |
| Shahzad Zokhidov                                                                                                                          |     |
| Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise .....                            | 275 |
| Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich                                                                                                         |     |
| Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан .....           | 282 |
| Холбекова Дилобар Расулжон кизи                                                                                                           |     |



# TOG' TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MANFAATLARI YO'LIDA INVESTITSIYA RESURSLARINI TO'PLASH MEXANIZMLARINI ISHLAB CHIQISH SAMARALARI

**Xidirov Alimardon Dagarovich**

Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti tayanch doktoranti



**Annotatsiya:** Ushbu maqlada tog' turizmining mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy sohalarida rivojlanishidagi ahamiyati hamda turizmning ushbu sohasini moliyalashtirish yo'llari atroflicha ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, muallif tomonida sohani rivojlantirish uchun samarali takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kapital qo'yilmalar, sayyohlik-rekreatsioon, institutsional, budjet, mintaq, infratuzilma.

**Abstract:** In this article, the importance of mountain tourism in the economic and social development of our country and the ways of financing this field of tourism are considered in detail. In addition, effective suggestions for the development of the field are given on the author's side.

**Key words:** capital investments, tourism-recreational, institutional, budget, region, infrastructure.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассмотрено значение горного туризма в экономическом и социальном развитии нашей страны и пути финансирования этой сферы туризма. Кроме того, со стороны автора даны эффективные предложения по развитию области.

**Ключевые слова:** капитальные вложения, туристско-рекреационный, институциональный, бюджет, регион, Россия, инфраструктура.

## KIRISH

Mamlakatimizda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini berdi.

Iqtisodiy rivojlanishning jadal sur'atlarini ta'minlashga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani investitsiyaga yo'naltirilgan iqtisodiy muhitni yaratishni taqozo etmoqda. Aynan investitsiyalarning kirib kelishi ishlab chiqarish ko'lamining kengayishini va iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi va yuqori pog'onasiga ko'tarilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, investitsiya siyosati mintaq iqtisodiyoti samaradorligini oshirishni belgilaydigan ustuvor yo'nalishlarini belgilashi kerak.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dj.Douns va G.Elliottlarning ta'kidlashlaricha "Investitsion muhit investitsiyalar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, moliyaviy va boshqa sharoitlardir".

P.Yarosh tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, mamlakat hududlarining investitsiya muhiti turlicha bo'ladi. Buning asosiy sabablaridan biri – ulardagi rivojlanishning bir xilda emasligi hisoblanadi. Shuningdek, investitsiya muhiti jozibadorligini ta'minlash rivojlanishi nisbatan sust bo'lgan hududlar uchun zarur. Ammo buni subyektiv kafolatlar berish orqali amalga oshirish kerak emas. Bunda ushbu hududlarga davlat va uning idoralari birinchi navbatdagi investorlar bo'lishi ahamiyatlidir.

P.Sijkovich, M.Pekala, P.Pekala, A.Jonsa tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turistik iqtisodiy zonalarga berilgan imtiyozlar, qonuniy kafolatlar hududlardagi investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda muhim rol ni



bajaradi. Bunday zonalarining mamlakatning iqtisodiy rivojlanish salohiyati yuqori bo'lgan, ammo investitsiyalar uchun yuqori sezuvchanlikni talab etmaydigan hududlarda tashkil etish lozim.

X.Jo'rayev tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, investitsiyalar tushunchasi (lotincha "investio" so'zidan olingan bo'lib, "kiyinaman" degan ma'noni anglatadi) amalda har qanday lug'atda mamlakat ichkarisida va xorijda iqtisodiyot tarmoqlariga kapital qo'yish sifatida talqin qilinadi. Investitsiyalarning yuqorida keltirilgan ta'rifidan kelib chiqib, har qanday jamg'arma qo'yilmalari ham (mulkiy va intellektual qimmatliklar) investitsiyalarni o'zida mujassamlashtiravermasligini qayd etish lozim. Masalan, agar bir jismoniy shaxs boshqa jismoniy shaxsdan qimmatli qog'ozlarni sotib olsa, bunday turdagi investitsiyalar cheklangan tavsifga ega bo'ladi. Chunki bunda faqat ular egalarining o'zgarishi yuz beradi, ya'ni pul mablag'larini o'tkazish va kelajakda aksiyalari qo'lga kiritilgan kompaniya daromadlarini olish huquqiga ega bo'lish aktlari o'rinli bo'ladi.

M.Engman, O.Onodera, E.Pinali tadqiqotlarida investitsiya muhiti tushunchasiga quyidagi ta'rif beriladi: "Investitsiya muhiti – mamlakatga investitsiya kiritilishi uchun sun'iy ravishda va tabiiy geografik joylashuv orqali hosil qilingan choralarni o'z ichiga oladi. Jumladan, qulay tekislikda joylashuv, tabiiy iqlim sharoiti, dengizga chiqish imkoniyati, sud-huquq tizimi, iqtisodiy samaradorlikka erishidagi vositalar va h.k."

Shu bilan birga, mintaqada turizmni rivojlantirishda investitsiya resurslarini to'plash muammolari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilayotganiga qaramay, mintaqada investitsiya faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha mintaqaviy siyosatni amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq masalalar hamda ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, moliyaviy va huquqiy sohalarini rivojlantirishning ilmiy jihatdan yetarli darajada tadqiq etilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'rganish jarayonida mavzu bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda investitsiya siyosatini tubdan takomillashtirish va isloh qilish, uni amalga oshirish yuzasidan zamonaviy, samarali yondashuv va mexanizmlarni joriy etish, shuningdek, investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va umuman ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, avvalambor, iqtisodiyot tarmoqlarini, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilishni, sanoat ishlab chiqarishni kompleks diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Sayyohlik-rekreatsioon kompleks va uning qismi bo'lmish tog' turizmining rivojlanishi bir qator ijobiy va salbiy natijalar bilan birga bo'lishi tabiiy, bu esa turizmning tarmoqlararo kompleks sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan yanada takomillashtirilgan boshqaruv mexanizmini yaratishni taqozo etadi, shuningdek, respublika iqtisodiyotining bir qancha tarmoqlarini birlashtiradi, hosil qiladi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Barchamizga ma'lumki, turizmning iqtisodiy klasterlardan biri sifatida rivojlanishi iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga yordam beradi va uning jadal rivojlanishini rag'batlantiradi.

Mamlakatimiz turizm industriyasi jadal rivojlanishi uchun qisqa muddatda eng qulay shart-sharoit, iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhit yaratish, jumladan, sohada xususiy sektorning ustuvor ishtirokini ta'minlash, uning raqobatbardoshligi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o'rinlari tashkil etish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish hozirda sohadagi eng muhim bo'lgan bo'lg'in hisoblanadi.

O'zbekiston turizm sohasi rivojlanishida salmoqli salohiyatiga ega davlat. Bu ko'plab noyob tabiat obyektlarining mavjudligi (ko'llar, tog' cho'qqilari), boy madaniy va tarixiy meros bilan ham bog'liqdir. Yildan yilga O'zbekiston Respublikasiga xorijliklarning tashrifi ortib bormoqda.

Mamlakatimizga yildan yilga tashrif buyuruvchi sayyohlarning ko'payayotganini hisobga oladigan bo'lsak, sohada yangi islohatlar o'tkazish zarurligini va bu soha rivojiga katta e'tibor qaratilish kerakligini ko'rsatmoqda.

Turizmni rivojlantirishning chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan tadbirlarni amalga oshirishni moliyalashtirishning manbalari etib tadbirkorlik subyektlari – loyiha tashabbuskorlari, vazirlik va idoralar – ijrochilarning o'z mablag'lari, jalb etilayotgan tijorat banklarining kreditlari, chet el investitsiyalari, xalqaro moliyaviy institutlar va donor mamlakatlarning zayom va grantlari, xayriya mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar bo'lib hisoblanadi.

Turizm sohasini rivojlantirishda uni moliyalashtirish manbalari eng muhim bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Turizmni rivojlantirishda moliyalashtirish manbalaridan eng muhimi va eng samaralisi sifatida investitsiyalar hisoblanadi. Turizmga investitsiyalar jalb qilish, turizmni rivojlantirishning eng muhim dastaklaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida respublikamizda turizm jadal tarzda rivojlanib bormoqda.



Turizmga investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakatda sohaga doir tarmoqlarni rivojlantirish bilan respublika turizmida sezilarli darajada o'sishga erishish mumkin. Ya'ni turizmga investitsiyalar jalb qilib xizmatlar ko'lamini kengaytirish, zamonaviy mehmonxonalar barpo etish, yangi turistik zonalarini ochish va mavjudlarini jozibadorligini oshirish, hududlarda infratuzilmani rivojlantirish va transport salohiyatini oshirish mumkin.

Shuningdek, joriy yilning o'tgan olti oyi mobaynida yurtimizga 3 million nafardan ortiq sayyoh tashrif buyurdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davrida 2,3 million nafarni tashkil etgan bo'lib, 31 foizga oshdi. Natijada turistik xizmatlar eksporti 28 foizga oshib, 590,5 million dollarni tashkil etdi. Bunday tendensiya va miqdoriy natijalar ham turizm infratuzilmasi ob'ektlari rivojiga ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, xorijiy turistlar mamlakatimizda uzoqroq vaqtga qolayotganligi tufayli ularni joylashtirish bilan bog'liq masalalar ko'paydi, bu esa turizm infratuzilmasi ob'ektlaridagi bandlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aholini turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish borasida olib borilgan ishlar natijasida joriy yilning o'tgan davrida 364 yangi oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, ularning umumiy soni 472 taga yetgan.

Tadbirkorlar tomonidan turizm sohasiga 191,7 milliard so'm investitsiyalar kiritilishi evaziga 1 ming 142 ta yangi ish o'rni yaratildi. Hozirgi kunda 23 ming xonaga ega jami 1 ming 46 ta sayyohlar va mehmonlarni qabul qiladigan joylar faoliyat ko'rsatmoqda. Shuning 107 tasi joriy yil birinchi yarmida barpo etildi.

Aholini turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish borasida olib borilgan ishlar natijasida joriy yilning o'tgan davrida 364 ta yangi oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, ularning umumiy soni 472 taga yetkazildi.

Erishilgan bunday ko'rsatkichlarning zamirida turizm sohasining huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan bir qator farmon va qararlarda belgilangan vazifalar ijrosining to'liq ta'minlanayotganligini hamda yaqinda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonunining hayotga tatbiq etilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda sayyohlar uchun qulay va zamonaviy shart-sharoitlar yaratish maqsadida 26 ta investitsiya loyihalariga qo'l urilgan. O'zbekistonda 1,1 mlrd dollar miqdoridagi 26 investitsiya loyihalari bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun qulayliklar va zamonaviy sharoitlar yaratish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, bu bo'yicha mamlakatda mehmonxonalar quriladi va rekonstruksiya qilinadi, sanatoriyalar, sog'lomlashtirish komplekslari quriladi, sport-rekreasiya zonalar yaratiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizm nafaqat daromad keltiradi, balki odamlarni ish bilan ta'minlaydi. Bu sohaga ayollarni jalb qilish muhim. Asosiy maqsad – byurokratik cheklovlarni olib tashlash, O'zbekiston – Osiyoda o'z drimlaynerlari yo'nalishlarni ochuvchi samolyotlariga ega bo'lgan birinchi mamlakat. 2017-yildan boshlab Nyu-Yorklik yo'lovchilar ularda to'g'ridan-to'g'ri parvozlarni amalga oshirmoqda.

Ekspertlarning baholashicha, turistik xizmatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri sarflangan har bir dollar turdosh sohalarda taxminan qo'shimcha uch dollarni keltiradi. Ko'plab xorijlik sayyohlar uchun birdaniga Osiyodagi bir nechta mamlakatga tashrifni ko'zda tutuvchi turlar qiziq bo'lar edi, shu sababli yuqorida aytib o'tilgandek turlarni tashkil qilish talab mavjud bo'lgan bozorni to'ldirilgan bo'lar edi. Bu takliflarni moliyalashtirishning eng maqbul yo'li esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Amonboyev M., Abidova D.I., Jurayeva N.A. Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISODIYOT", 2019. – 226 bet.
2. M.Amonboev, N.Juraeva —Turizm iqtisodiyoti bva menejmentill o'quv uslubiy majmua. – T.:TDIU 2018-YIL.
3. Christopher Dougherty. Introduction to econometrics. 2011. 336 p.
4. uzbekturizm.uz ma'lumotlari.
5. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.
6. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar markazi sayti.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2024. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

